# Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

## “Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi

| Loyiha mavzusi | Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija |
|---|---|
| **O‘zbek milliy raqsi va xoreografiya san’ati namunalarini raqamlashtirish orqali nomoddiy madaniy merosni himoyalash, saqlash, hujjatlash va media arxiv yaratish**<br> | **Tadqiqot shakli:** Amaliy.<br>**Ilmiy tadqiqot natijalari:**<br>- O‘zbek milliy raqs san’atining merosni saqlash, hujjatlash va keng jamoatchilikka yetkazish uchun elektron arxivlar yaratiladi;<br>- raqs namunalari vizual-antropologik va struktura-semiotik usullar asosida hujjatlashtiriladi;<br>- raqamli media arxivda har bir raqsga taalluqli ilmiy ma’lumot, ijrochilik tafsiloti va video-materiallar integratsiya qilinadi;<br>- milliy raqslarning tasnifi va elektron kartografiyasi yaratiladi;<br>- milliy raqs namunalarining foto va videosuratlari raqamlashtirish orqali o‘quv muassasalari uchun elektron manbalar shakllantiriladi/<br><br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish.** Olingan natijalar Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Madaniyat vazirligining xulosasi olinadi.<br><br>**Ilmiy natijalarni chop etish.** Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va *Web of Science/Scopus* ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi<br><br>**Izoh.** Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Madaniyat vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi. |